

O'ZBEKISTONDA TARIX FANI RIVOJLANISHIDAGI AYRIM MUNOZARALI MASALALAR

Madrahimov Elyorjon Islomovich

Furqat tuman Kasb-hunar maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishidagi ayrim munozarali masalalar to'g'risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tarix, Yoshlar, milliy qadriyatlar, Markaziy Osiyo.

Dunyoda qaysi bir xalq yoki millat bo'lmasin, albatta o'z tarixi va o'tmishini, avlodlarini o'rganadi, ulardan o'rnak oladi, ulardan faxrlanishga, o'tmishini ulug'lashga va boshqa xalqlar ichida shu o'tmishini keng targ'ib qilishga harakat qiladi. Buni biz qisqa qilib, tarix fani yoki tarix ta'limi deb ataymiz.

Jahonning eng rivojlangan davlatlari ham, eng quyi darajadagi davlatlari ham o'z davlati tarixini, o'z millati o'tmishini, xatolarini, yutuqlarini o'z kelajak avlodlariga yetkazishga, ularni shu orqali tarbiyalashga harakat qiladi.

O'zbekiston tarixini o'rganish, qayta tahlil qilish hozirgi zamon uchun nechog'li zarur ekanligini quyidagi misollar bilan aytib o'taman. Biz uzoq vaqt mustamlakachi imperiya Sovet davlati tarkibida yashadik. Bu davrda bizning tariximiz atayin buzib ko'rsatildi, o'rganildi. To'g'ri ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borildi. Masalan: Vyatkin rahbarligi ostida Samarqandda Obirahmat anhuri yonidan "Ulug'bek rasadxonasi" topib o'rganildi. Rus olimlaridan Bartold, Yakubovskiy, Ivanin va boshqalar ko'plab ilmiy tadqiqot asarlari yozib bizning tariximizni keng miqyosda ochib berdi. Ammo ular o'z fikrlari bilan yoki o'sha davr mafkurasi nuqtai nazari bilan tariximizni o'rgandilar, ayrim ma'lumotlar xato ketgan va hozir o'sha xatoliklarni ustida ish olib borishimiz kerak. Biz o'z tariximizni xolisona, hech qanday bo'rttirishlarsiz, kamchiliklarsiz va xato ma'lumotlarsiz o'rganishimiz kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Ilm va izlanish bo'lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman, biror-bir sohaning kelajagi bo'lmaydi". Shuning uchun biz yoshlar jahon tillarini o'rganib, kerak bo'lsa fors va arab tillarini o'rganib, dunyoning turli mashhur muzeylarida saqlanayotgan yurtimiz tarixiga oid nodir asarlarni, buyuk bobolarimiz qalamiga mansub qimmatli ma'lumotlar berilgan asarlarni o'rganishimiz va kelajak avlodimizga eng to'g'ri va haqqoniy tariximizni yozib qoldirishimiz kerak.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "Yoshlar—mamlakatimiz kelajagidir", "O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi uning yoshlaridir", -deb bejizga aytmaganlar. Qanchadan qancha tarixiy asarlarimiz dunyo arxivlarida, muzeylarida

saqlanmoqda, ularni o'rganishimiz biz Yosh avlodning ham qarzimiz, ham burchimizdir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad Vatanimizni jahonning ilg'or mamlakatlari qatorida munosib o'rin egallashiga, xalq turmush farovonligini yuksak darajaga ko'tarishga erishishdir. Bu yuksak maqsadga erishish uchun yurtboshimiz ta'kidlaganidek, avvalo, xalqimiznima'naviy saviyasini yuksaltirish xalqimiz ongi-shuurini o'tmishi, jamiyatning zararli mafkurasidan xolis qilish zarur. Zero, 70 yillik sovet tuzumi davrida o'zbek xalqi o'zining tarixiy merosidan, xotirasidan mahrum qilinib, yolg'on, g'ayriqonuniy nazariyalar ta'siri ostida yashab keldi. Bu narsa izsiz ketmadiki, biz buni tarixga munosabatda, tarixni o'qitishda ayniqsa yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Sobiq Sovet davri tarixshunosligida tarix fani hukmron siyosatga, mafkuraga bo'ysundirilib, tarixiy jarayonlar ko'p hollarda soxtalashtirildi. Hattoki, milliy o'lkalar tarixiga umuman e'tibor bermay qo'yildi. Bu davrdagi maktab o'quvchilari Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Ulug'bek, Bobur, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitratlarni umuman bilmaganlar. Aksincha tarix darsliklarida rus davlatchiligi, madaniyati masalalariga nihoyatda katta e'tibor berilib, milliy o'lkalar tarixiga bepisand munosabatda bo'lishgan. Baynalminal tarbiya sovet xalqini shakllantirishi shiori ostida ruslashtirish siyosati olib borilgan. Sovet davrining zararli "merosidan" qutulishda, xalqimiz ma'naviyatini milliy qadryatlarimiz asosida shakllantirishda tarix fanining o'rni beqiyosligiga mustaqillik yillarida zo'r e'tibor berila boshlandi. Ayniqsa, Birinchi Prezidentimiz I.AKarimovning tarixchi olimlar bilan uchrashuvida bildirgan fikr-mulohazalari tarixga munosabatning tubdan, ijobiy tomonga o'zgarishida muhim rol o'ynadi.

O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishi tarixi hozirgi zamon fanining muhim masalalaridan biridir. Hozirgi kunda tarixni davrlashtirishda eski, marksistik ruhdagi tarixni davrlashtirishdan voz kechildi. O'zbekiston tarixini hozirgi kunda yangicha davrlashtirish mezoni taklif qilinyapti.

Vatanimizning ko'p asrlik tarixini anglash, to'g'ri yoritilishi uchun fanning metodologik asoslarini tubdan o'zgartirish talab qilinyapti. Bu vazifa ham Prezidentimizning tarixchi olimlar bilan uchrashuvida ustuvor vazifa sifatida alohida ko'rsatib o'tilgan.

Prezidentimiz o'zbek davlatchiligi tarixini va o'zbek xalqi etnogenezi masalasini alohida ajratib ko'rsatgan edi. Shu o'rinda bu masalalar bir mamlakat chegarasidan chetga chiqib, regionlar ahamiyatiga ega ekanligiga alohida e'tibor berish zarur. Ayni vaqtda shu bilan bog'liq ravishda yangi muammolar ham paydo bo'ldi. Bular qatoriga Markaziy Osiyoda sivilizasiyaning, davlatchilikning kelib chiqishida ayrim xalqlarning boshqalardan ustun qo'yishga intilishi, o'z millatining tarixidagi rolini

oshirib ko'rsatish kabi nohush hollarni ko'rsatish mumkin. Bu esa tarixiy xolislikdan chekinishga, tarixiy jarayonni yangi siyosiy vaziyatga muvofiq tarzda yana soxtalashtirilishiga olib kelishi mumkin. Buni biz qo'shni mamlakatlarda so'nggi vaqtlarda ilgari surilayotgan soxta xulosalarda ham ko'rishimiz mumkin. O'zbek tarixchilari davlatchiligimiz, xalqimiz, xo'jalik, madaniy tarixini tarixiy dalillar asosida xolislik bilan yoritishga intilyaptilar. Vatan tarixshunosligida qadimgi va o'rta asrlar tarixida yuz bergan voqea va jarayonlar Markaziy Osiyodagi barcha xalqlar o'tmish tarixiga taalluqli ekanligi nuqtai-nazari ilgari surilmoqda. Bu yagona to'g'ri xulosadir. Bu xulosa ayrim qo'shni respublikalarda Markaziy Osiyoda davlatchilikning, madaniyatning shakllanishida o'z millatini boshqalardan ustun qo'yishga intilayotganligiga qarshi ilmiy asoslangan xulosa hisoblanadi. O'zbek tarixchi olimlari tarixiy jarayonlarni xolisona yoritish va yosh avlodni shu ruhda tarbiyalashga alohida e'tibor bermoqdalar. Zero o'z xalqingni o'tmishini bo'yab-bejash bilan umumiy ildizga ega bo'lgan xalqlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish bilan o'zaro hamjihatlikka putur yetkazish mumkin. Bizning hukumatimiz, avvalo prezidentimiz barcha xalqlar, ayniqsa, yon qo'shnilarimiz bilan o'zaro ishonch, hurmat, hamjihatlik asosida munosabatda bo'lishga yo'naltirilgan siyosat olib borayotganligi ham tarixchilarimizga yuksak mas'uliyat yuklamoqda. Biz tarixchilar shu yuksak mas'uliyatni his qilgan holda ish olib borishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov Sh. "Shaxs va jamiyat" Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik, -T., "Sharq", 2010.
2. <https://uwed.uz>
3. <https://kun.uz>